

**QISHLOQ XO‘JALIGI TARAQQIYOTIDA MEVA-SABZAVOT  
EKSPORTINING O‘RNI VA AHAMIYATI**

*Axmedova Nasibaxon Xasanovna*  
*Farg‘ona davlat universiteti, o‘qituvchi*

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПЛОДООВОЩНОГО ЭКСПОРТА В РАЗВИТИИ  
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

*Ахмедова Насибакхон Хасановна*

*Ферганский государственный университет, преподаватель*

**ROLE AND IMPORTANCE OF FRUIT AND VEGETABLE EXPORT IN  
AGRICULTURAL DEVELOPMENT**

*Akhmedova Nasibakhan Khasanovna*

*Fergana State University, teacher*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini kengaytirish hamda dehqon va fermer xo‘jaliklarini tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, mahalliy meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlardagi eksport hajmi va ularni eksportga chiqarish uchun chet elda qabul qilingan me‘yor va standartlarga mahsulotlarning muvofiqligini ta‘minlash bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Qishloq xo‘jaligi, eksport, meva-sabzavot, iqtisodiyot, daromad, samara, fermerlik faoliyati.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены вопросы о расширения экспорта сельскохозяйственной продукции дехканских и фермерских хозяйств увеличить объем производства продукции, пользующейся повышенным спросом на внешних рынках, развивать сельское хозяйство, объем экспорта местной плодоовощной продукции на внешние рынки, а также соответствие продукции нормам и стандартам, принятым за рубежом для её экспорта, представлены предложения по проведению системной работы по обеспечению.

**Ключевые слова.** Сельское хозяйство, экспорт, фрукты и овощи, экономика, доход, производительность, сельскохозяйственная деятельность.

**Annotation.** This article discusses the issues of expanding the export of agricultural products of dekhkan and farm enterprises to increase the volume of production of products that are in high demand in foreign markets, to develop agriculture, the volume of exports of local fruits and vegetables to foreign markets, as well as the compliance of products with norms and standards adopted abroad for its export, proposals for carrying out systematic work to ensure it are presented.

**Keywords.** Agriculture, exports, fruits and vegetables, economy, income, productivity, agricultural activities.

Ma'lumki, qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini diversifikatsiyalash orqali qishloq xo'jaligida er-suv resurslar cheklanganligi sharoitida ishlab chiqarishning doimiy o'sishi zarurligini ta'minlashda, agrar soha va iqtisodiy resurslar salohiyatidan to'la va samarali foydalanish orqali mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, boshqa sanoat va qayta ishlash tarmoqlarini xomashyo bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligida oqilona bandlikni ta'minlash orqali ish kuchlarini boshqa tarmoqlarga jalb etish hamda aholi turmush darajasi va faravonligini yanada oshirish imkoniyatlari kengayadi. Mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash iqtisodiyotning barcha etakchi tarmoqlarini jumladan agrar sohani modernizatsiyalash, yangi texnika va tejamkor texnologiyalarni keng tadbiq etish bilan birga, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tarkibini tubdan yangilash uni o'zgartirish va diversifikatsiyalashni taqozo etmoqda. SHu jihatdan qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini diversifikatsiyalashni ta'minlash borasida respublikamiz mintaqalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda fermerlik faoliyatini ixtisoslashtirish borasidagi mavjud tizimni takomillashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining yirik tarmoqlaridan biri- qishloq xo'jaligi hisoblanib, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, har qaysi mamlakat ijtimoiy hayotida aholining birlamchi ehtiyoji bo'lgan oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, bu borada eng samarador to'g'ri yo'lni belgilab olish xalq farovonligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Davlatimiz rahbari tomonidan ushbu sohada belgilab berilgan yo'nalishlar, ayniqsa, bozor munosabatlari talablariga mos ravishda qishloq xo'jaligini isloh qilish hamda tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish ushbu sohada erishilayotgan natijalar misolida qanchalik samaradorli, taraqqiyot yo'li ekanligini ko'rsatib turibdi. Binobarin, bu boradagi islohotlar aholining oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan talabini qondirish, xalqimizning turmush darajasini oshirish, bozorlarimizda narx-navo barqarorligini saqlashdek muhim ijtimoiy masalalarni hal etish imkonini bermoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan agrar islohotlar qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiyalash ya'ni zamonaviy ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini shakllantirish va ularni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda mazkur sohaga davlat agrar siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi o'laroq qishloq xo'jaligida yil sayin ijobiy yutuqlar qo'lga kiritilib borilmoqda. Bu borada qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va sifatini yaxshilash, tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etish, shuningdek iqtisodiyot barcha tarmoqlarida ishlab

chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlashga dastak bo'ladi. 2022-yilda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi 1743,7 ming tonnani tashkil etib, qiymat ifodasida 1145,8 million dollarni tashkil etdi. 2021 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati mos ravishda 18,5 foizni tashkil etdi. Taqdim etilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'tgan yili eng katta daromad uzum eksportidan olingan. Asosan, «Solnechnaya yagoda» uzumi, shu jumladan, quritilgani 318,9 ming tonna, 280,1 million dollarga eksport qilindi. Mosh o'zbek dehqonlariga yaxshi daromad keltirdi. Bu hosilning 122,4 ming tonnasi xorijga 93,5 million dollarga sotilgan. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy va Pokistonga to'g'ri keladi. Rossiya o'tgan yili O'zbekiston meva-sabzavotlarining eng yirik iste'molchisiga aylandi. Ushbu davlatga 468,7 million dollarlik (42,5 foiz) 541,9 ming tonna meva-sabzavot jo'natildi. Ikkinchi o'rinda Qozog'iston bo'lib, O'zbekistondan 216 million dollarga (18,9%) 671,2 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'zlashtirgan. Respublika meva-sabzavot eksportida Xitoy va Pokistonning ulushlari ancha sodda va mos ravishda 9,1% va 8,8% ni tashkil qiladi. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy eksportdagi ulushi 5,9 foizni tashkil etdi. Yanvar-iyul oylarida ushbu davlatga 222,5 million dollarlik 253,5 ming tonna meva-sabzavot eksport qilindi, buning natijasida respublika eksportidagi ulushi 40,5 foizni tashkil etdi. Bu davrda Qozog'iston arzonroq sabzavot va mevalar iste'molchisiga aylandi. Qo'shni respublikaga 124,5 million dollarlik (22,7 foiz) 447,3 ming tonna mahsulot jo'natildi. O'zbekistondan meva-sabzavot import qiluvchi beshtalikka yetti oyda 56 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari jo'natilib, 47,2 million dollarlik Xitoy kiradi, Qirg'iziston (47,2 million dollarga 93,4 ming tonna) va Pokiston (25,3 million dollarga 8,9 ming tonna). Etti oyda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi 968,5 ming tonnani tashkil etdi va qiymat ifodasida 549,2 million dollarga etdi (2021 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati mos ravishda 14,6 foizni tashkil etdi). 2022-yil yanvar-iyul oylarida meva-sabzavot mahsulotlarining umumiy eksportdagi ulushi 4,9 foizni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-iyul oylari natijalariga ko'ra, meva-sabzavot mahsulotlari eksporti qiymati bo'yicha eng katta hajm Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keladi (meva-sabzavot mahsulotlari umumiy hajmining 40,5 foizi), bu Xitoyga eksport hajmidan 4,7 baravarga ko'pdir. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, bu davrda uzum (shu jumladan quritilganlari) va shaftoli tashqi bozorning sevimli mahsulotiga aylandi. O'zbekiston joriy yilda 40 million dollarlik dorivor o'simliklar eksport qildi. Quyoshli rezavorlar va shaftoli respublika tashqarisiga 110 million dollardan ortiq, jumladan, 64,5 ming tonna uzum 63,6 million dollar va 53,4 ming tonna shaftoli 49,7 million dollarga jo'natildi.

Ta'kidlash joizki, o'tgan qisqa davrda yurtimiz oziq-ovqat mahsulotlarining chetdan olib kelinishiga barham berishga muvaffaq bo'ldi, albatta, qo'lga kiritgan natijalarimiz jahon bozorining bugungi murakkab talablari sharoitida

respublikamizning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini kengaytirishga puxta zamin yaratmoqda. Shu ma‘noda, davlatimiz rahbarining yaqinda e‘lon qilingan meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishni mantiqan yangi bosqichga olib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 21 iyundagi PQ-3077 sonli «Mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorini e‘lon qilinishi, bu borada olib borilayotgan ishlarining to‘g‘ri ekanligini isbotlab turadi [1].

Qabul qilingan qarorning muhim jihatlaridan biri, nafaqat mahsulot ishlab chiqaruvchilarga, balki mahsulotlarni chet elga eksport qilishda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ko‘maklashadigan tashqi savdo tashkilotlariga ham eksport faoliyatini amalga oshirishda teng sharoitlar yaratib beradi. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi-eksport qiluvchilar uchun qo‘llaniladigan amaldagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan imtiyoz va qulayliklar endilikda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari eksporti bilan shug‘ullanadigan barcha tadbirkorlik sub’ektlariga tatbiq etiladi. Bu eksport bilan tegishli tajriba va zarur mablag‘larga ega, doimiy ravishda jahon bozori kon’yunkturasini kuzatib boradigan hamda tashqi bozorlarda ishonchli hamkorlari bor ixtisoslashgan kompaniyalarning mahsulotlar eksporti bilan shug‘ullanishi xalqaro amaliyotga to‘liq mos keladi. O‘zbekistonda etishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlari iqlim sharoitining juda qulayligi tufayli mana shunday noyob bo‘lganligi uchun ham jahon qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida yuqori darajada raqobatbardoshdir. Masalan, O‘zbekistonda etishtiriladigan uzum navlari tarkibidagi shakar moddasi 18-30 foizni tashkil etadi, pomidor tarkibidagi quruq moddalar miqdori esa 5,5 foizdan oshadi [2], bu esa Evropa mamlakatlaridagi ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlaridagidan ancha yuqori bo‘lib, shunisi bilan xaridorlarni o‘ziga tortadi. Bugungi kunda O‘zbekiston meva-sabzavoti mahsulotining o‘ta qimmatli navlarini etishtirish va qayta ishlash, ularni eksport qilish sohasida katta salohiyatga ega.

Agrar sektorda eksportga mo‘ljallangan mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va uni qayta ishlaydigan sanoatni etakchi o‘ringa ko‘tarish qishloq xo‘jaligida barqaror iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlaydi. Mahsulotlarni eksport qilish qiymati uning hajmiga nisbatan o‘sganligi mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan meva-sabzavot mahsulotiga talabi jahon bozorida ortib borayotganligidan darak beradi. Bunday ahvol qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash, konservalash va qadoqlash bo‘yicha mavjud korxonalarining quvvatlaridan yanada to‘laroq foydalanishni talab qiladi. Jahon qishloq xo‘jaligi mahsuloti bozorining talabini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi serhosil va raqobatbardosh, mintaqalarning tuproq-iqlim sharoitlariga mos navlarini yaratish, zamonaviy agrotexnika usullarini joriy etish,

uzum, meva-sabzavot mahsulotlari va boshqalarni etishtirish uchun mamlakatimizda qishloq xo'jaligini muntazam ravishda rivojlantirib, takomillashtirib borishimiz zarur. Eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotining sifatini samarali nazorat qilish masalalarida bir qator qiyinchiliklar bor, xalqaro talablarga javob beradigan sinov markazlari va laboratoriyalar etishmasligi sezilmoqda. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish tuzilmasini diversifikatsiya qilish, mahsulotni etishtirish, tashish, unga ishlov berish, uni qayta ishlash, qadoqlash, ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda iste'molchilarga sotishning resurslarini tejaydigan texnologiyalarini joriy etish, shu asosda oziq-ovqat mahsulotlarining ekologik xavfsizligini ta'minlash kerak bo'ladi. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ushbu choralar meva-sabzavot mahsulotlarining eksportini kengaytirish bilan birgalikda dehqon va fermer xo'jaliklarini tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, er resurslaridan samarali foydalanish, shu jumladan, takroriy ekinlar ekish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirishga rag'batlantiradi. Bu esa o'z navbatida, ishlab chiqarilayotgan meva-sabzavot mahsulotlarining narxi va sifati bo'yicha tashqi bozorlarda raqobatdoshligini oshirish imkonini beradi. Eng muhimi, dehqon va fermer xo'jaliklari etishtirgan mahsulotlarining haqiqiy egasi sifatida ulardan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish, mustaqil eksport qilish, daromadlarini oshirish, oilasining moddiy farovonligini ko'tarishlari mumkin bo'ladi, qo'shimcha valyuta tushumlari esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va ularni chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi loyihalarni investitsiyalash uchun imkoniyat yaratib beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2017 yil 21 iyundagi PQ-3077- sonli «Mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni yanada qo'llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
2. Mannopova, M. S. (2018). Turizm yo'nalishida ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari. *Бухоро вилоятининг туристик ва инвестицион салоҳияти халқаро илмий-амалий конференция материаллари*, 1(6), 307-310.
3. Маннопова, М. С. (2019). Хорижий мамлакатларда аҳоли бандлигини таъминлашнинг моделлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари. *Европа Иттифоқи Erasmus+ дастурининг MAGNET – Университетлар Ўзбекистонда ўрта ёш аҳолини ўқитиш ва касбга тайёрлаш марказларининг асосий ҳамкори*, 1(5), 150-151.
4. Маннопова, М. С. (2019). Инвестиция бу мамлакат драйвери – истиқболли иқтисодиётнинг кафолатидир. *Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожлантиришнинг долзарб масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар ва материаллари тўплами. Андижон*, 1(7), 106-109.

5. Маннопова, М. С. (2019). Кластеры-как драйвер экономики. *II-Международная научно-практическая конференция Аграрная экономика в условиях глобализации и интеграции ВНИОПТУСК. г.Москва, 1(9), 23-25.*
6. Маннопова, М. С. (2020). Фаргона вилоятида мева-сабзавотчилик соҳасида эришилган ютуқлар ва камчиликлар. *Фаргона вилоятини инновацион ривожлантириши: муаммолар ва ечимлар мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари Фаргона, 1(6), 124-127.*
7. Маннопова, М. С. (2019). Озиқ-овқат саноати равнақининг беқиёс аҳамияти. *Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси, 1(1), 44-47.*
8. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистонда мева-сабзавотчилик йўналишидаги кластерларни ривожлантириш ва бошқаришнинг асосий вазифалари. *Biznes-эксперт, 1(6), 48-52.*
9. Халматжанова, Г. Д., & Маннопова, М. С. (2020). РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ С УЧЁТОМ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 238-244).
10. Khalmatjanova, G. D., & Mannopova, M. S. (2021). Priority areas in agricultural development in the Republic of Uzbekistan. In *The Challenge of Sustainability in Agricultural Systems: Volume 1* (pp. 49-54). Cham: Springer International Publishing.
11. Маннопова, М. С. (2019). Основные проблемы в сфере переработки плодоовощной продукции в Республике Узбекистан. *Образование и наука в России и за рубежом, (16), 175-180.*
12. Маннопова, М. С., & Абдуллаева, Ш. Э. (2021). Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини диверсификациялаш жараёнида мева-сабзавот кластерларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятларини. *Экономика и социум, 10, 89.*
13. Mannopova, M. S. (2020). РАЗВИТИЕ КЛАСТЕРОВ В ПЛОДООВОЩНОМ НАПРАВЛЕНИИ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ИХ ФУНКЦИИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 320-324).
14. Маннопова, М. С., & Хасанов, И. М. (2020). РАЗВИТИЕ ИНВЕСТИЦИЙ– ГАРАНТИЯ ПЕРСПЕКТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ ИНВЕСТИЦИЯЛАШНИНГ МОЛИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИННОВАЦИОН ЖИҲАТЛАРИ* (pp. 301-306).
15. Mannopova, M. S., & Khalildinov, A. A. (2022). THE IMPORTANCE OF THE EFFECTIVE USE OF FRUIT VEGETABLE CLUSTERS IN AGRICULTURE OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje., 29, 117-120.*
16. Mannopova, M. S. (2022). Main Directions of Development of Fruit and Vegetable Clusters in Agriculture of Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management, 5(11), 106-109.*

17. Mannapova, M., & Abdullayeva, S. (2022). THE WORK DONE AND THE DESIGNATED TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF FRUIT AND VEGETABLE CLUSTERS IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 1126-1129.

18. Абдуллаева, Ш. Э., & Маннопова, М. С. (2022). Основные направления развития и управления плодоовощными кластерами. *Ta'lim fidoyilari*, 6(7), 507-512.

19. Abdurahimovna, C. D., & Sultanbekovna, M. M. (2022). Cost and Accounting Concepts in Accounting and Their Accounting. *Global Scientific Review*, 4, 21-26.

20. Маннопова, М. С. (2022). Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида мева-сабзавотчилик кластерларини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. *New innovations in national education*, 1(6), 12-16.

21. Маннопова, М. С. (2022). Жаҳон мамлакатларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг самарали ёндошувлари. *New innovations in national education*, 1(6), 4-11.

22. Sultonbekovna, M. M., & Shuxratovich, A. S. (2023). O 'ZBEKISTON QISHLOQ XO 'JALIGIDA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. *Journal of new century innovations*, 23(3), 39-45.

23. Sultonbekovna, M. M. (2023). OZBEKISTONDA MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 23(3), 25-31.

24. Sultonbekovna, M. M., & Esonovna, A. S. (2023). O 'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 23(3), 58-64.

25. Sultonbekovna, M. M. (2023). MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERI KORXONALARI FAOLIYATIDA BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Journal of new century innovations*, 23(3), 18-24.

26. Mannopova, M. S. (2022). O 'zbekistonda meva-sabzavotchilik yo 'nalishidagi klasterlarni rivojlantirish va boshqarishning asosiy vazifalari. *Biznes-ekspert*, 1(6), 48-52.

27. Mannopova, M. S. (2022). O 'zbekiston qishloq xo 'jaligida meva-sabzavotchilik klasterlarini rivojlantirishning asosiy yo 'nalishlari. *New innovations in national education*, 1(6), 12-16.

28. Mannopova, M. S. (2020). RAZVITIE KLASTEROV V PLODOOVOIICNOM NAPRAVLENII V SELSKOM XOZYAYSTVE I IX FUNKSII. *MINTAQA IQTISODIYOTINI INVESTITSIYALASHNING MOLIYAVIY-HUQUQIY VA INNOVATSION JIHATLARI*, 320-324.

29. Mannopova, M. S., & Xasanov, I. M. (2020). RAZVITIE INVESTITSIIY–GARANTIYA PERSPEKTIVNOY EKONOMIKI. MINTAQA IQTISODIYOTINI INVESTITSIYALASHNING MOLIVAVIY-HUQUQIY VA INNOVATSION JIHATLARI, 301-306.
30. Mannopova, M. S. (2020). Farg ‘ona viloyatida meva-sabzavotchilik sohasida erishilgan yutuqlar va kamchiliklar. *Farg ‘ona viloyatini innovatsion rivojlantirish: muammolar va echimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Farg ‘ona, 1(6)*, 124-127.
31. Mannopova, M. S. (2019). Кластеры-как драйвер экономики. II-Международная научно-практическая конференция Аграрная экономика в условиях глобализации и интеграции ВНИОПТУСК. г. Москва, 1(9), 23-25.
32. Mannopova, M. S. (2019). Investitsiya bu mamlakat drayveri–istiqbolli iqtisodiyotning kafolatidir. *Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlantirishning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ilmiy maqolalar va materiallari to ‘plami. Andijon, 1(7)*, 106-109.
33. Mannopova, M. S. (2019). Основные проблемы в сфере переработки плодоовощной продукции в Республике Узбекистан. *Образование и наука в России и за рубежом, (16)*, 175-180.
34. Mannopova, M. S. (2019). Xorijiy mamlakatlarda aholi bandligini ta’minlashning modellari va ularning o ‘ziga xos xususiyatlari. *Evropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining MAGNET–Universitetlar O ‘zbekistonda o ‘rta yosh aholini o ‘qitish va kasbga tayyorlash markazlarining asosiy hamkori, 1(5)*, 150-151.
35. Abdullaeva, S. H. E., & Mannopova, MS (2022). *Osnovnye napravleniya razvitiya i upravleniya plodoovoshnyimi klasterami. Ta ‘lim fidoyilari, 6(7)*, 507-512.
36. Sulonbekovna, M. M. (2023). MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASSTERLARINING RIVOJLANTIRISH VA ULARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY TUZILMALARI. *Gospodarka i Innowacje., 33*, 419-423.
37. Akhmedova, N. K., & ugli HOMIDOV, K. K. (2022). Institutional Basis of Digitalization of Management Activity of Food Industry Enterprises in Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management, 5(11)*, 34-38.